

## **Oilaviy (Maishiy) zo'raonlik zamonaviy jamiyatning ijtimoiy muommosi sifatida**

**Mirxodjayeva Munajat Abdusaitovna**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Inson" Ijtimoiy xizmatlar  
markazi hodimi**

Annotatsiya. Ushbu maqola oilaviy zo'raonlikning sabablarini murakkab ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik omillarning o'zaro bog'liq tizimlarini tadqiq qiladi. Olimalar ushbu zo'raonlik uzoq ildizlarga ega ijtimoiy-madaniy normalar hamda iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liqligini aytib, sodda tushuntirishlarning yetarli emasligini ta'kidlaydi. O'zbekiston jamiyatida patriarxal qadriyatlar va urf-odatlar o'rni mustahkam bo'lib, bu omillar oilaviy munosabatlarda ayollarning o'rnini belgilashda ahamiyatli rol o'ynaydi. Kambag'allik va iishsizlik kabi iqtisodiy sharoitlar esa oilaviy zo'riqishlarni kuchaytirib, zo'raonlik xavfini kuchaytiradi. Agressiya va ruhiy salomatlikka oid muammolar kabi psixologik omillar ham zo'raonlikka olib kelishi mumkin.

Abstract Criminological studies on domestic violence highlight the complex, multifaceted causes rooted in interwoven social, cultural, economic, and psychological factors. Scholars argue that domestic violence is a complex outcome of long-standing socio-cultural and economic conditions, making simple explanations insufficient. In Uzbekistan, patriarchal norms and cultural expectations place women in subservient roles within the family, reinforcing gendered social roles and power dynamics. Economic stressors such as poverty and unemployment also exacerbate family tensions, increasing the likelihood of violence. Psychological factors, including aggression and mental health issues, often lead to impulsive acts of violence.

Аннотация Криминологические исследования показывают, что причины семейного насилия сложны и многогранны, будучи результатом переплетения социальных, культурных, экономических и психологических факторов. Учёные считают, что семейное насилие – это результат долгосрочных социальных и культурных, а также экономических условий, и его нельзя объяснить однозначно. В Узбекистане патриархальные нормы и культурные ожидания ограничивают социальные роли женщин, усиливая иерархию в семье. Экономические трудности, такие как бедность и безработица, также способствуют усилению напряжённости в семье, увеличивая риск насилия.

Психологические факторы, включая агрессию и проблемы с психическим здоровьем, часто приводят к импульсивным актам насилия.

Kriminologiya sohasidagi tadqiqotlar oilaviy zo‘ravonlikni turli jihatlardan o‘rganib, uning murakkab sabablarini ko‘rsatadi. Bu keng qamrovli ijtimoiy-madaniy omillardan shakllanadigan o‘zaro bog‘liq tizimlarni tashkil etadi. Masalan, P. Shmarionning fikricha, Rossiya Fuduratsiyasi misolida oilaviy zo‘ravonlik holatlarining asosiy omili spirtli ichimliklarni suiiste‘mol qilish bilan bog‘liqdir [1]. Uning tadqiqotlari oiladagi janjal va zo‘ravonlikning ` 32 taxminan 85 foizi ana shu omil ta'sirida sodir etilishini ko‘rsatadi. AQShlik D.King va boshqa kriminologlarga ko‘ra oilaviy zo‘ravonlik uzun zanjirli ijtimoiy va madaniy, shuningdek iqtisodiy va boshqa murakkab muhit natijasi bo‘lib, uni soddalashtirib bo‘lmaydi.[2] Bu fikrdan kelib chiqqan holda, zo‘ravonlik omillari nafaqat shaxsiy munosabatlar, balki kengroq ijtimoiy omillar bilan ham bog‘liq ekanligi ayon bo‘ladi. Ijtimoiy- madaniy omillar ta'siri O‘zbekiston jamiyatida patriarxal qadriyatlar va urf-odatlar o‘rni mustahkam bo‘lib, bu omillar oilaviy munosabatlarda ayollarning o‘rnini belgilashda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Garchi qonunlar ayol va erkaklar tengligini e'tirof etsa-da, norasmiy, biroq, kuchli ta'sirga ega ijtimoiy-madaniy normalar, oila va erxotinlik qadriyatlari, bola parvarishi, qarindoshchilik, diniy va milliy madaniy tushunchalar kabi ko‘plab tizimlar jamiyatda ayolning ijtimoiy rolga nisbatan chegaralar va talablar qo‘yyadi. Ayni chegaralar va talablarni biz xatto sud amlaiyoti tahlilida ham lchiq kuzatishimiz mumkin. Masalan, 1–1414–2401/102–sonli jinoyat ishi hujjatlarida ko‘rinadiki, er xotinidan ovqatni o‘z vaqtida olib kelmagani, buning ustiga uning talabiga e'tiroz qilgani sababli, u xotiniga og‘ir tan jarohati yetkazadi va bu bilan oilaviy zo‘ravonlik jinoyatini sodir qiladi. Garchi bu o‘rinda mastlik ahamiyatga ega bo‘lsa-da, boshqa jinoyat ishlarini ham inobatga olinsa (ularning aksariyatida zo‘ravon mast holatda emas), mastlik bilan teng qatorda ijtimoiy-madaniy omillar ham zo‘ravonlikda muhim o‘rin tutugani oydinlashadi. Gap qadriyatlarning to‘g‘ridanto‘g‘ri ta'siri emas, ularning talqini hamda vaziyatga radikal tatbiq etilishi hakida. Shunga ko‘ra, ayollarning “majburiyatlari” (ovqatni er aytgan vaqtda olib kelishi, uning talablariga so‘zsiz bo‘ysunishi, “”gap qatyarmasligi) va “ijtimoiy rollari” bo‘yicha muayyan tushunchalar mavjud bo‘lib, bunday munosabatlardagi zo‘ravonlik kelib chiqish ehtimoli ortishi mumkin. Uy xo‘jaligida ayolning faoliyati va xulqiga nisbatan erkaklar tomonidan nazorat qilishga intilish, o‘z “hukmini o‘tkazish” bilan bog‘liq ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ko‘p hollarda, oilada qaror qabul qilish huquqi ayol emas, balki erkak va uning qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday vaziyatlar sud amaliyotida

qayd etilib, u qonun bilan belgilanmagan bo'lsa-da, oilaviy zo'ravonlik kelib chiqish ehtimoli yuqori ekanini ko'rsatadi. Masalan, 1-1816-2402/72-sonli jinoyat ishida er va onasi xotiniga umumiy farzandi sog'ligi bo'yicha vrachga murojaat qilishni taqiqlaydi, lekin xotini bunga qaramay bola uchun vrach chaqirgani sababli unga yengil tan jarohati yetkazadi (bu ma'muriy javobgarlikdan keyingi oilaviy zo'ravonlik). Shunga ko'ra, oila va uy xo'jaligida qarorlar qabul qilishda ayollarning ijtimoiy rollari oilaviy zo'ravonlik sabablarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu rollarni tushunmasdan oilaviy zo'ravonli sabablarini tushunish mushkul bo'ladi. Iqtisodiy va psixolog omillar ` Iqtisodiy omillar, ya'ni moliyaviy yetishmovchilik, ishsizlik yoki daromad kamligi ham oilaviy zo'ravonlikning sabablari sifatida ko'rsatiladi [3]. Bu esa bir vaqtning o'zida ruhiy-psixologik zo'riqlashlarga ham olib kelishi mumkin. Ushbu ikki omil o'zaro bog'liq bo'lib, oilaviy zo'ravonlik kelib chiqishida muhim omil deb hisoblanadi. Jamiyatda daromadlar kamligi va ishsizlik psixologik bosimni orttirib va o'zaro nizolarga olib keladi [4]. Bu bosim ba'zi hollarda zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Sud hujjatlarida keltirilgan bir qator misollarda aniqlanganidek, oilaviy nizolarning sabablari ko'p hollarda moliyaviy muammolardan kelib chiqadi. Masalan, bir oilaviy zo'ravonlik ishi tahliliga ko'ra, birga yashamaydigan oilada zo'ravonlik ertomonidan aliment to'lashga e'tirozdan kelib chiqadi, aliment to'lashni istamaslik, daromadlari kamligi uchun aliment to'lashni qasos va pastga urish deb hisoblagan er, xotini yashayotgan uyga borib janjal ko'taradi va xotiniga tan jarohati yetkazadi. Psixologik omillar, jumladan, tushkunlik, agressiya yoki boshqa psixologik buzilishlar ham oilaviy zo'ravonlikning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlik jinoyatining ko'p hollarda oldindan rejalashtirilmaganligi, uning to'satdan kelib chiqishi psixologik omillar ta'sirida ekanligini ko'rsatadi [5]. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sud hujjatlarida ko'rsatilgan jinoyatlarning 95 foizi oldindan rejalashtirilmadan sodir etilganligi, jinoyatga qadar zo'ravonlik alomatlari mavjud bo'lganligi ayon bo'ladi. O'zbekistondagi sud amaliyoti hujjatlari oilaviy zo'ravonlikning sabablari va unga olib keluvchi omillarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oilada nazorat o'rnatish va zo'ravonlik ko'proq erkak tomonidan amalga oshirilishi holatlari qayd etilgan. Sud amaliyotini o'rganish natijasida ayon bo'ldiki, oilaviy munosabatlar davomida nazorat va hukmronlikni saqlab qolish uchun zo'ravonlik sodir etish holatlari mavjud. Shu bilan birga, bunday holatlarning juda ko'p qismi patriarxal ijtimoiy tuzilmaga borib taqaladi. O'zbekiston jamiyatida oilaviy zo'ravonlik muammosi turli omillardan kelib chiqib yuzaga kelmoqda. Sud amaliyoti hujjatlari asosida o'rganilgan sabablar va omillar shunga ishora qiladiki, oilada ayollarga nisbatan hukmronlik o'rnatish, iqtisodiy va psixologik muammolarning mavjudligi,

ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bu muammoning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Oilaviy zo‘ravonlik holatlarining oldini olish uchun nafaqat qonunchilik asosida, balki ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlarga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, qonunlar ustuvorligini ta‘minlash orqali ham samarali choralar ko‘rish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Шмарион П.В. Насильственные преступления против жизни и здоровья, совершаемые в семье в отношении несовершеннолетних: криминологический аспект // Российский следователь. 2017. № 9.
2. Donna J. King. Voices of Intimate Partner Homicide An Exploration of Coercive Control and Lethality. Routledge. 2024. ` 34
3. Ташмухамедова Д.Г. Каримова Д.М. Сафарова Н.Н. Ўзбекистонда оилаларнинг ажрашиш омиллари ва динамикаси прогнозлари. Рисола. – Тошкент: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019, Б. – 68.
4. Sunitha, P. "Domestic violence and theories." International Journal of Research in Economics and Social Sciences 6.12 (2016): 206-214.
5. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси: Дарслик / И. Исмаилов, Ў.Х. Мухамедов, М. З. Зиёдуллаев, Ё. Фарфиев ва бошқ.; масъул муҳаррир Ш. Т. Икрамов. – Т., 2015. – Б. 114